Sayyoramizda global iqlim o'zgarishi natijasida tabiatda tabiiy xavf-xatarlarning paydo bo'lish chastotasi tobora ko'payib bormoqda. Bunday tabiiy hodisalarga sel-toshqinlarni misol qilib keltirish mumkin. Xususan, Markaziy Osiyoda, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi hududlarida so'nggi o'n yillikda iqlim o'zgarishlari natijasi ta'sirida sel-toshqinlar va boshqa xavfli tabiiy hodisalar tez-tez sodir bo'lmoqda. Oqibatda esa o'nlab daqiqalar yoki bir-necha soat ichida qisqa muddatli sel oqimlari ko'priklarni, yo'llarni, kanallarni, dalalarni, ekin maydonlarni hamda suv va sel-suv omborlaridagi gidrotexnika inshootlarini shikastlantirmoqda. Sel-toshqinlarga asosan jadallashgan yog'ingarchilikning tasodifiy sodir bo'lishi sabab bo'lmoqda, natijada esa daryolarning doimiy oqimi sel oqimi bilan qo'shib, tezkor va qisqa muddatda katta xavflar sodir etmoqda [15-6].

Qashqadaryo viloyatida yirik sel-toshqini markazlari Qashqadaryo, G'uzordaryo, Tanxozdaryo, Yakkabog'daryo havzalari va shu bilan birga viloyatning tog'li hududlaridagi soylar hisoblanadi. Bu daryo havzalarida barpo etilgan suv va sel-suv

omborlarining havzalarida loyqa-cho'kindilarning ko'p miqdorda to'planishi sabab bo'lmoqda. Quyida dala-tadqiqotlari olib borilmoqda.

Quyidagi diagrammalar "Langar", "Qizilsuv", "Qalqama" va "Dehqonobod" selsuv omborlaridagi 2015–2021 yillardagi sel oqimlari hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Diagrammadan ko'rinib turibdiki, o'rganilgan yillarda sel-suv omborlarida sel oqimining kelishi har xil, ayniqsa, "Langar"da 2019 yilda 2015 yilga nisbatan 3 barobar ko'p miqdorda sel oqimlari kelgan. 2020–2021 yillarda esa kamayishi kuzatilgan (1-rasm).

Sel-suv omborlari loyqa-cho'kindilar kimyoviy tarkib tahlillari shuni ko'rsatadiki, "Langar"dagi cho'kindilarning yopishqoqlik darajasi "Qalqama" nikiga qara ganda ancha yuqori hamda ikkalasida ham SO_4^{2-} , Ca^{2+} miqdori yuqori darajada (2-jadval) [3].

Analitik nazorat ixtisoslashgan davlat inspeksiyasi 2021-2023-yillarda viloyatdagi sanoat korxonalari oqava suvlarida kimyoviy tahlil olib borgan. Tahlil natijalariga ko'ra 8 ta o'ziga xos ifloslantiruvchi, ya'ni konsentratsiyasi ruxsat etilgan meyordan ortgan ammoniy ion, nitritlar, xrom, mis, rux, neft mahsulotlari va barcha organik moddalar (kislorodga bo'lgan kimyoviy talab) tanlab olindi.

Bu moddalar konsentratsiyasini ruxsat etilgan meyor bilan taqqoslanganda nitrit ionlari va turg'un bo'lmagan organik moddalar barcha oqava suvlar uchun muhim ifloslantiruvchi ekanligi aniqlandi (2-Jadval).

2-Jadval


“Langar” va “Qalqama” sel-suv omborlari havzalaridan namuna olingan loyqa-cho'kindilarning kimyoviy tarkibi

№	Namuna olingan sel-suv omborlari	HCO_3^-	Cl^-	SO_4^{2-}	Ca^{2+}	Mg^{2+}	$\text{Na}^+ + \text{K}^+$
		mg-ekv	mg-ekv	mg-ekv	mg-ekv	mg-ekv	mg-ekv
1.	“Qalqama” sel-suv ombori yuqori qismi	0,26	0,06	0,56	0,40	-	0,48
2.	“Langar” sel-suv ombori PK 10-53	0,43	0,11	2,14	2,00	0,30	0,38
3.	“Langar” sel-suv ombori o'rta qismi	0,51	0,37	2,19	1,40	0,50	1,17
4.	“Qalqama” sel-suv ombori o'rta qismi, ogolovkani yoni	0,34	1,78	5,91	2,90	1,90	3,23
5.	“Langar” sel-suv ombori suv tashlash inshooti yon qismi	0,61	0,23	1,45	1,80	0,40	0,09

Og'ir metallar asosiy ifloslantiruvchi moddalarga kiradi, ular hamma sohada nazorat qilinishi zarur. Shu sababli atrof tabiiy muhit ifloslanish muammolari va ekologik monitoring bo'yicha qilingan ishlarda, bugungi kunga kelib og'ir metallarga Mendeleyev davriy sistemasidagi 40 ta elementidan ortiqrog'i taaluqli: V, Cr, Mn, Fe, Co, Ni, Cu, Zn, Mo, Cd, Sn, Hg, Pb, Bi va boshqalar. Bunda og'ir metallarni sinflashtirish quyidagi sharoitlar muhim o'rinni egallaydi, ularning tegishli past konsentratsiyada tirik organizmlarga yuqori toksikligi (zaharligi), hamda bioakumulyatsiyaga va biomagnifikatsiyaga layoqatliligi. Bu turga kiruvchi deyarli barcha metallar (qo'rg'oshin, simob, kadmий va vismutdan tashqari ularning hozirgi paytda biologik ahamiyati noaniq), biologik jarayonlarda faol ishtirok etadi va ko'plab fermentlar tarkibiga kiradi [11-15]. Og'ir metallar o'simliklar va hayvonlar organizmida to'planishi va "ozuqa zanjirlari" orqali bir organizmdan ikkinchi organizmga o'tishi mumkin. Ba'zi olimlarning fikricha, atom massasi 50 dan yuqori bo'lgan metallar og'ir metallar hisoblanadi. Biroq, bu metallar ichida turli hil sanoat jarayonlarida ko'p ishlatiladigan va biologik faolligi hamda zaharliligiga ko'ra tirik organizmlar uchun jiddiy xavf tug'diradigan metallar muhim ahamiyatga ega.

Bunday metallar qatoriga qo'rg'oshin (Pb), simob (Hg), kadmий (Cd), rux (Zn), kobalt (Co), nikel (Ni), mis (Cu), manganets (Mn), xrom (Cr), molibden (Mo) va boshqalar kiradi. Tabiatdagi suvlarda uchraydigan metallarni ikki sinfga ajratish mumkin: tabiatda keng uchraydigan metallar (Fe, Mn, Cu, Zn, Co, Mo va h.k.) va antropogen manbali "ifloslantiruvchi moddalar" (Hg, Cd, Cr, Pb, Sn, Ni va x.k.). Havfliligiga ko'ra esa atrof muhitni (suv, tuproq, suv ombori cho'kindilarini) ifloslantiruvchi metallar 3 sinfga ajratiladi. Bular:

- 1-sinf eng xavfli: kadmий (Cd), simob (Hg), qo'rg'oshin (Pb), mishyak (As);
- 2- sinf: kobalt (Co), nikel (Ni), mis (Cu), xrom (Cr), molibden (Mo);
- 3-sinf: manganets (Mn), rux (Zn);hisoblanadi [12-6].



2-rasm. Mis(II) va rux(II) metallarining yillar kesimida atrof muhitga chiqarilishi

Atrof-muhitda yuqori konsentratsiyaning ta'siri (RECHM ortib ketganda):

1. Suv tizimlariga ta'siri: Mis va ruxning suvda konsentratsiyasi ortib ketsa, suv o'simliklari va hayvonot dunyosi uchun zaharli bo'ladi.

Mis va rux (Cu: RECHM=1mg/l ichimlik suvida, 0,5-1mg/l suv xavzalarida; Zn(II): 1 mg/l ichimlik suvi uchun, 5 mg/l texnik suv) juda oz konsentratsiyada ham suv hayvonlarining nafas olish tizimiga zarar yetkazadi.

2. Tuproq va o'simliklarga ta'siri: (Cu(II) RECHM=3 mg/kg qishloq xo'jaligi tuprog'i uchun, Zn(II): RECHM=23 mg/kg qishloq xo'jaligi tuprog'i uchun). Mis va ruxning ortiqcha miqdori tuproqqa singib, o'simliklarning o'sishini sustlashtiradi.

Bu ekinlarning mahsuldorligini kamaytiradi va oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Havo uchun RECHM=Zn(II): 0.05 mg/m³, RECHM=Cu(II): 0.001 mg/m³.

Havo orqali yuqori konsentratsiyali metall ionlari inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

4. Inson salomatligiga ta'siri: Misning ortiqcha miqdori zaharlanishga sabab bo'ladi, bu kuchli bosh og'riq, qayt qilish va nafas olish qiyinchiligiga olib keladi. Ruxning yuqori konsentratsiyasi qon aylanishi va asab tizimiga zarar yetkazishi mumkin. Kam miqdorda esa rux va mis yetishmasligi inson organizmida immunitet pasayishi, teri kasalliklari va boshqa muammolarga olib keladi. Qon yaratish jarayoni, asab tizimi faoliyati buzilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кодиров А.А. [и др.]. Анализ сточных вод реки Кашкадарьи. Анализ воды в верхних участках реки кашкадарьи // Universum: Химия и биология : электрон. научн. журн. 2019. № 12(66). url: <http://7universum.com/ru/nature/archive/item/8197>;

2. Internet: <https://www.gazeta.uz/uz/2024/02/27/kaliy-zavodi/>

3. V. A. Duxovniy, M. B. Baklushin, E. D. Tomin, F.V. Serebrennikov "Sug'oriladigan erlarning gorizontall drenaji". – M.: Kolos, 1979. – 250 b.;

4. Chembarisov E. I., Baxritdinov B. A. O'rta Osiyo daryo va drenaj suvlarining gidrokimyosi – Toshkent: O'qituvchi, 1989. – 232 b.

5. Chembarisov, E.I. Sug'oriladigan yerlarning gidrokimyosi (Orol dengizi misolida) - Toshkent: Fan, 1988. - 104 b.;

6. <https://teletype.in/@uzbekneftegaz/WcuMPrR3gMZ>

7. Shodiev S.R., Chembarisov E.I. Janubi-g'arbiy O'zbekistonning kollektor-drenaj suvlari // "Cho'llarni o'zlashtirish muammolari". - Ashxobod, 2007. No 4. 15-16:00

8. Yangiev A.A., Ashrabov A., Muratov O.A. Life prediction for spillway facility sidewall. E3S Web of Conferences 97, 04041 (2019) FORM-2019. 16 Yangiev A.A., Bakiev M.R., Muratov O.A., Choriev J.M., Djabbarova S. Service life of hydraulic structure reinforced concrete elements according to protective layer carbonization criteria Journal of Physics: Conference Series 1425(1). 2020.

9. Янгиев А.А., Панжиев Ш., Аджимуратов Д.С. Сел-сувомборларида лойқа-чўкиндиларнинг шаклланиши тахлили ҳамда хавфсизлигини баҳолаш бўйича тавсиялар/ IRRIGASIYA va MELIORASIYA журнаלי.—Тошкент, 2021. — №1(23). —Б.29-33.

10. Yangiev A., Eshev S., Panjiev S., Rakhimov A. Calculation of sediment ow in channels taking into account passing and counter wind waves. IOP Conference Series: Materials Science and Engineering 883(1), 012036 2020.

11. Yangiev A.A., Panjiev SH., Adjimuratov D.S. Sel-suv omborlarida loyka chukindilarning shakllanishi takhlili khamda khavfsizligini baholash buyicha tavsiyalar [Recommendations for the analysis of safety and assessment of the formation of sludgeinood reservoirs] Journal of Irrigation and Melioration. Tashkent 2021. №1(23). Pp.29-33 (inUzbek);

12. Yangiev A., Eshev S., Panjiev S., Rakhimov A. Calculation of sediment ow in channels taking into account passing and counter wind waves. IOP Conference Series: Materials Science and Engineering 883(1), 012036 2020.

13. Интернет: <https://teletype.in/@uzbekneftegaz/WcuMPrR3gMZ>

14. Yangiev A., Adjimuradov D., Panjiev Sh., Karshiev R. Results and analysis of elder search in old reservoirs in Kashkadarya region/E3S Web of Conferences 264, 03033(2021)

15. Интернет: <https://teletype.in/@uzbekneftegaz/V43fThgOcYD>;

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15015565>

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА УРОВЕНЬ ЗАРАБОТНОЙ ПЛАТЫ В ПРОИЗВОДСТВЕ

Халилов О.Б.

Худжандский государственный университет имени академика Б. Гафурова

АННОТАЦИЯ:

Данная статья посвящена исследованию факторов, определяющих уровень заработной платы в производстве. Особое внимание уделено экономическим, социальным и законодательным аспектам, влияющим на формирование доходов работников.

Ключевые слова: *заработная плата, факторы заработной платы, экономические факторы, социальные факторы, законодательное регулирование, рынок труда, минимальный размер оплаты труда (МРОТ), инфляция, производительность труда, квалификация работников, налоговая политика, стимулирование труда, экономическая эффективность.*

Заработная плата является ключевым элементом экономической системы, отражая стоимость труда и уровень жизни населения. Понимание факторов, влияющих на её уровень, необходимо для разработки эффективной экономической политики и повышения благосостояния работников.

Методология

Для анализа использованы методы экономического моделирования и статистического анализа, основанные на данных Росстата и других официальных источников.

Результаты

Исследование выявило следующие ключевые факторы, влияющие на уровень заработной платы в производстве:

1. Экономические факторы:

Состояние экономики: экономический рост способствует увеличению доходов работников, в то время как экономический спад может приводить к их снижению.

Инфляция: рост цен на потребительские товары и услуги снижает реальную покупательную способность заработной платы.

2. Социальные факторы:

Образование и квалификация работников: высококвалифицированные специалисты, как правило, получают более высокую заработную плату.

Спрос и предложение на рынке труда: дефицит квалифицированных кадров в определённых отраслях может приводить к повышению заработных плат.

3. Законодательные факторы:

Минимальный размер оплаты труда (МРОТ): установление МРОТ влияет на нижнюю границу заработных плат и может сжимать дифференциацию доходов.

Налогообложение: налоговая политика государства оказывает влияние на чистый доход работников.

Общие экономические условия, такие как уровень инфляции, экономический рост и состояние рынка труда, оказывают значительное влияние на уровень заработной платы. В условиях экономического кризиса, например, наблюдается снижение реальных заработных плат из-за инфляции и экономической нестабильности.

Высококвалифицированные специалисты с большим опытом работы обычно получают более высокую заработную плату. Качество и уровень образования работников напрямую влияют на их производительность и, соответственно, на размер их вознаграждения.

Структура и специфика производства: Отрасль, в которой работает предприятие, а также его технологическая оснащённость и уровень автоматизации, влияют на требования к квалификации работников и, следовательно, на уровень их заработной платы.

Проведённый статистический анализ взаимосвязи уровня заработной платы и эффективности сельскохозяйственного производства позволил выявить закономерности этой связи и количественно охарактеризовать её влияние. Методика исследования включала последовательное применение нескольких методов статистического анализа, логично следующих друг за другом.

Заработная плата является важным инструментом материального стимулирования, влияющим как на работников, так и на предприятия. Для работников размер заработной платы имеет значительное значение, в то время как для предприятий важно эффективное управление деятельностью, включая выявление факторов, влияющих на уровень заработной платы, таких как механизмы её установления и выплаты. Таким образом, целесообразно изучить

эти вопросы с точки зрения количественного выражения и их взаимозависимости.

В настоящее время существует значительное количество исследований, посвящённых вопросам заработной платы с концептуальной точки зрения, в рамках экономической теории, а также на материалах отраслей, не связанных с сельским хозяйством. Однако проблемы статистического анализа уровня заработной платы, особенно его влияния на экономическую эффективность производства, остаются недостаточно изученными.

Например, в статье "Взаимосвязь заработной платы и производительности сельскохозяйственного труда: тенденции и направления" рассматривается необходимость изучения взаимосвязи роста заработной платы и производительности труда в сельском хозяйстве. Особое внимание уделяется опыту отдельных субъектов РФ, где заработная плата зависит от количества и качества труда. Отмечается, что в некоторых регионах России рост производительности труда отстаёт от роста заработной платы. Предлагается использовать показатель соотношения роста производительности и оплаты труда при разработке государственных программ развития сельского хозяйства.

Таким образом, исследование взаимосвязи уровня заработной платы и экономической эффективности производства, особенно в сельском хозяйстве, является актуальной задачей, требующей дальнейшего внимания и анализа.

Законодательные акты, минимальные размеры оплаты труда, налогообложение и другие формы государственного регулирования могут устанавливать базовые уровни заработной платы и влиять на её дифференциацию.

Спрос и предложение на рынке труда, конкуренция между работодателями и профсоюзная деятельность также играют роль в определении уровня заработной платы.

Заработная плата является важным инструментом материального стимулирования, и для работников важен размер получаемой ими заработной платы, а для предприятия — эффективное ведение деятельности через выявление факторов, влияющих на её уровень, среди которых — механизм установления и выплаты заработной платы.

Прозрачность системы оплаты труда способствует повышению производительности и мотивации сотрудников.

Сотрудники должны понимать, в каком случае размер заработной платы повысится или понизится. Прозрачность оплаты труда помогает организациям устранить или обнаружить разрывы в оплате труда и сыграть определенную роль в обеспечении справедливого вознаграждения.

Обсуждение

Полученные результаты подтверждают, что уровень заработной платы в России зависит от комплекса факторов, включая экономическое состояние, социальные условия и законодательные инициативы. Особое внимание следует уделить балансированию между стимулированием экономического роста и обеспечением социальной справедливости.

Заключение

Для повышения уровня заработной платы в производстве необходимо учитывать взаимодействие различных факторов и разрабатывать комплексные меры, направленные на улучшение экономической ситуации, повышение квалификации работников и совершенствование законодательной базы.

Список литературы:

1. Грехова А. А. Заработная плата как понятие.
2. Заработная плата: минимальный размер и дифференциация.
3. Справедливая оплата труда: проблемы и перспективы.
4. Капелюшников Р. И. Заработная плата в современной экономике: теория и российская практика. — М.: ГУ ВШЭ, 2019.
5. Григорьев Л. М., Никулина Е. В. Факторы динамики заработной платы в России. // Вопросы экономики, 2022, № 5.
6. Клейнер Г. Б. Заработная плата и эффективность производства: институциональный подход. // Экономика и управление, 2021, № 3.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15015572>

УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОНТРОЛЯ МИКРОКЛИМАТА В АГРАРНОЙ ОТРАСЛИ С ПОМОЩЬЮ АВТОМАТИЗИРОВАННЫХ СИСТЕМ НА БАЗЕ МИКРОКОНТРОЛЛЕРОВ

Айтмуратов Б.Ш., Иземетов С.Б.

Нукусский филиал ТУИТ

АННОТАЦИЯ.

Данная работа посвящена применению автоматизированных систем контроля микроклимата в аграрной отрасли. Введение современных технологий мониторинга на базе микроконтроллеров и датчиков температуры и влажности позволяет эффективно регулировать условия окружающей среды в помещениях для выращивания растений и хранения продукции. Автоматизация этого процесса помогает поддерживать стабильные параметры микроклимата, что положительно сказывается на урожайности и сохранности продукции. В работе рассмотрены примеры внедрения, экономическая эффективность автоматизированных систем и перспективы развития в сельском хозяйстве.

Ключевые слова: микроклимат, микроконтроллер, датчики температуры и влажности, автоматизация, агротехнологии, экономическая эффективность.

Введение

Современное сельское хозяйство сталкивается с вызовами, связанными с изменениями климата и потребностью в повышении урожайности. Одним из способов решения этих задач является применение технологий контроля микроклимата в производственных помещениях и теплицах. Использование микроконтроллеров и датчиков температуры и влажности помогает создать стабильные условия, необходимые для роста сельскохозяйственных культур и сохранения продукции. Это особенно важно в регионах с непостоянными климатическими условиями, где колебания температуры и влажности могут привести к потерям урожая и снижению его качества.

Оборудование и технологии

Основными компонентами автоматизированных систем контроля микроклимата являются датчики температуры и влажности, такие как DHT11 и

DS18B20, а также микроконтроллеры Arduino и ATmega328P. Датчик DHT11 обеспечивает высокую точность измерения влажности и температуры, передавая данные на микроконтроллер, который анализирует показания и активирует системы кондиционирования или обогрева при необходимости[1,4].

Системы, построенные на таких устройствах, просты в установке и эксплуатации. Например, DS18B20 — датчик, широко применяемый в сельском хозяйстве из-за своей точности и стабильности. Этот цифровой датчик передает информацию о температуре с точностью до 0,5°C, что позволяет оперативно регулировать климат в помещениях для хранения и выращивания сельскохозяйственной продукции.

Принципы работы

Работа системы автоматизированного контроля микроклимата начинается с регулярного считывания данных с датчиков температуры и влажности. Эти значения сравниваются с оптимальными параметрами для конкретного типа продукции или растения, которые заранее настроены в контроллере. В случае отклонения от нормы микроконтроллер отправляет сигналы для активации кондиционеров, увлажнителей или других климатических устройств.

На дисплее устройства отображаются текущие показатели, что позволяет оператору наблюдать за состоянием микроклимата в реальном времени. Данные могут также сохраняться в памяти устройства, что позволяет проанализировать изменения условий на протяжении определенного времени. В перспективе такие системы могут быть подключены к облачным сервисам для удаленного мониторинга и управления.

Экономическая эффективность

Автоматизированные системы контроля микроклимата выгодны не только с точки зрения аграрного производства, но и в экономическом плане. Снижение человеческого фактора в регулировании условий среды уменьшает затраты на ручной труд и снижает риск ошибок. Применение датчиков DHT11 и DS18B20 позволяет сократить потребление электроэнергии, так как включение и выключение климатических устройств происходит только при необходимости[2,3].

Для малых и средних фермерских хозяйств, которые традиционно ограничены в ресурсах, внедрение таких систем может существенно повысить рентабельность за счет более эффективного использования ресурсов и улучшения качества продукции. Автоматизация также позволяет снизить затраты на оборудование, так как простые системы с датчиками температуры и влажности стоят значительно дешевле сушильных камер и крупных систем вентиляции, требующих постоянного обслуживания.

Перспективы и развитие

В настоящее время исследуются возможности дальнейшего развития технологий контроля микроклимата в аграрной отрасли. Внедрение беспроводных сетей и подключение к облачным платформам откроет дополнительные возможности для удаленного мониторинга и управления условиями в теплицах и хранилищах. Это также позволит оперативно реагировать на изменения климата, контролировать условия выращивания и хранения продукции и предотвращать потерю урожая.

Современные технологии мониторинга микроклимата могут стать важным инструментом для аграрного сектора, позволяя ему адаптироваться к изменяющимся условиям и повышать конкурентоспособность на мировом рынке. Это решение открывает большие перспективы для мелких и средних фермерских хозяйств, особенно в регионах, подверженных резким колебаниям температуры и влажности.

Заключение

Автоматизация контроля микроклимата с помощью микроконтроллеров и датчиков открывает новые возможности для повышения эффективности аграрного производства. Такие системы помогают поддерживать стабильные условия в помещениях для выращивания растений и хранения продукции, что способствует улучшению качества продукции и сокращению затрат. Перспективы дальнейшего развития данных технологий связаны с внедрением облачных платформ и беспроводных сетей, которые позволят ещё больше повысить производительность и конкурентоспособность аграрной отрасли.

Список литературы:

1. Бахриддинов А. Р. Развитие кооперации и интеграционных процессов в шелководческом подкомплексе АПК Узбекистана // Бюллетень науки и практики. 2018. Т. 4. №11. С. 329-336.
2. Евстратов В. В. Разработка технических средств автоматизированной системы контроля температуры в помещении // Молодой ученый. 2020. №52 (342). С. 17-20.
3. Современные датчики. Справочник. Москва: Техносфера, 2005. 592 с.
4. Петин В. А., Биняковский А. А. Практическая энциклопедия Arduino. Москва, 2020.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15052973>

(CH₃)₂CO···HF DIMERNING ν (HF) VALENT TEBRANISH POLOSASI SHAKLLANISH MEXANIZMLARINI IQ SPEKTROSKOPIYA VA KVANTO-KIMYOVIY HISOBLASHLAR YORDAMIDA O'RGANISH

Amonov Akhtam¹, Muxiddinova Madina²

¹ Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Muhandislik fizikasi instituti, Optika va spektroskopiya kafedrası, Samarqand, O'zbekiston

² Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O'zbekiston
muxiddinovamadina2407@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda (CH₃)₂CO···HF dimerining ν (HF) valent tebranish polosasini infraqizil (IQ) spektroskopiya va kvanto-kimyoviy hisoblashlar asosida o'rganish natijalari taqdim etilgan. Tadqiqot davomida Fur'e infraqizil spektrometriyasi yordamida yuqori aniqlikdagi (0.05 cm⁻¹ gacha) yutilish spektrlari olingan. Dimerning valent tebranish polosalari, ayniqsa, 3800-3200 cm⁻¹ chastota sohasida murakkab assimetrik shaklga ega ekani aniqlandi. Nazariy tadqiqotlar doirasida zichlik funksiyasi nazariyasi (DFT) yondashuvi va M06-2X funksional usuli orqali kvanto-kimyoviy hisoblashlar amalga oshirildi. Gaussian 16 dasturi yordamida bajarilgan hisob-kitoblar dimerning optimal geometriyasi, valent tebranish chastotalari hamda molekulalararo o'zaro ta'sirlarni aniqlash imkonini berdi. Olingan natijalar eksperimental ma'lumotlar bilan taqqoslanib, kompleks hosil bo'lish jarayonida molekulyar o'zaro ta'sirlarning ta'siri chuqur tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: (CH₃)₂CO···HF dimeri, infraqizil spektroskopiya, kvanto-kimyoviy hisoblash, zichlik funksiyasi nazariyasi, valent tebranish polosalari.

KIRISH


Molekulalararo o'zaro ta'sirlar, ayniqsa, vodorod bog'lanishlari, kimyo va biologiyaning ko'plab sohalarida muhim rol o'ynaydi. Ushbu tadqiqotda (CH₃)₂CO···HF dimerining valent tebranish polosasini infraqizil spektroskopiya va kvanto-kimyoviy hisoblashlar asosida o'rganish maqsad qilingan.

(CH₃)₂CO (atseton) va HF (vodorod ftorid) o'rtasidagi vodorod bog'lanishi tufayli hosil bo'luvchi kompleks molekulalar dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bunday tizimlarning spektral xususiyatlarini o'rganish ularning fizik-kimyoviy tabiati va funksional xususiyatlarini chuqur tushunish imkonini beradi.

Tadqiqotda Fur'e infraqizil spektroskopiyasi (IQ) orqali eksperimental yondashuv qo'llanildi. Shuningdek, zichlik funksiyasi nazariyasi (DFT) va Gaussian 16 dasturi yordamida kvanto-kimyoviy hisoblashlar amalga oshirildi. Ushbu nazariy va eksperimental usullarni uyg'unlashtirish orqali valent tebranish polosasining shakllanish mexanizmi batafsil tahlil qilindi.

MUHOKAMA

$(\text{CH}_3)_2\text{CO} \cdots \text{HF}$ kabi model sistemalarda gaz fazasida IQ yutilish spektrlari va *ab initio* hisoblash natijalaridan foydalangan holda tadqiq qilish samarali hisoblanadi. Spektral chiziqlar $0,05 \text{ cm}^{-1}$ aniqlikkacha qiymatda olingan. Gaz fazasida tajribalar o'tkazish kyuvetasining uzunligi 10-25 cm bo'lib darchalari sapphiredan yasalgan. Bundan maqsad o'rganilayotgan molekula yoki kompleksning tashqi muhit bilan mukammal izolyatsiyasini ta'minlashdir. Kuvetada kam sonli va izolyatsiyalangan hamda murakkab dinamik o'zaro ta'sirlardan holi bo'lgan bir xil tipdagi dimerni hosil qilish asosiy maqsad qilingan. HF ning bosimi $p=7-22 \text{ Torr}$ va $(\text{CH}_3)_2\text{CO}$ ning bosimi 9–120 Torr bo'lgan holda Fur'e IQ yutilish spektrlari olingan.



1-rasm. $(\text{CH}_3)_2\text{CO} \cdots \text{HF}$ dimerning $\nu(\text{HF})$ valent tebranish polosasining IQ spektri

$(\text{CH}_3)_2\text{CO} \cdots \text{HF}$ dimerning Fur'e infraqizil (IQ) yutilish spektri xona haroratida Bruker IFS-125 HR spektrometeri yordamida spektral chiziqlarni 0.05 cm^{-1} gacha ajratgan holda olindi. Kompleks hosil bo'lish natijasida molekulararo tebranish modalarining angarmoniklik va $\text{C}=\text{O}$ hamda HF tebranish modalarining o'zaro ta'sirlashlari natijasida $3800-3200 \text{ cm}^{-1}$ $\nu(\text{HF})$ valent tebranish sohasida murakkab assimetrik polosalar namoyon bo'lgan.

$(\text{CH}_3)_2\text{CO} \cdots \text{HF}$ dimerning $\nu(\text{HF})$ valent tebranish polosasiga tegishli tebranma sathlariaro o'tishlar chastota va intensivliklar bo'yicha identifikatsiya qilindi va ularning tanlangan qiymatlari quyida keltirilgan (1-jadval). Eng kichik chastota va

intensivlik qiymati (0,0,0,0)-(0,0,0,1) ga teng bo'lib, fundamental o'tishlarga tegishli (0,0,0,0)-(0,0,0,1) o'tishlarning qiymatlari sezilarli darajada katta va bu polosaning yaqqol assimetrik shaklda bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari O...H vodorod bog'lanish ko'prigini o'z ichiga olgan C=O...H-F deformatsion tebranish, C=O va H-F tebranishlarning o'zaro angarmoniklik ta'sirlashishi dimerning $\nu(\text{HF})$ valent tebranish polosasining murakkabligini ta'minlovchi asosiy omil ekanligi ilmiy asoslandi.

1-jadval


(CH₃)₂CO...HF dimerning $\nu(\text{HF})$ valent tebranish polosasiga tegishli tebranma-aylanma sathlararo o'tishlarning chastota va intensivliklar bo'yicha qiymatlari

Kompleksdagi tebranma-aylanma sathlararo o'tishlari	Chastota ν , (cm ⁻¹)	Intensivlik S, (km/mol)
(0,0,0,0)-(0,0,0,1)	89.2	3.7
(0,0,0,0)-(0,0,1,0)	194.2	11.8
(0,0,0,0)-(0,1,0,0)	1724.4	339
(0,0,0,0)-(1,0,0,0)	3385.5	1225
(0,0,0,0)-(0,2,0,0)	3440.2	1.3
(0,0,0,0)-(1,0,0,1)	3491.3	145
(0,0,0,0)-(1,0,1,0)	3608.7	64
(0,0,0,1)-(1,0,0,1)	3402.4	915
(0,0,0,1)-(1,0,0,0)	3296.3	147
(0,0,0,1)-(0,1,0,1)	1725	338
(0,0,1,0)-(0,1,1,0)	1725	335
(0,0,1,0)-(1,0,1,0)	3414.5	903
(0,0,1,0)-(1,0,0,0)	3191.3	205

NATIJALAR

Tajribada olingan natijalarni tahlil qilish maqsadida zichlik funksiyasi yaqinlashishi yordamida (DFT), M06-2X funksiyalar to'plamida [1] va triple- ζ def2-TZVP bazislar to'plamida kvanto kimyoviy hisoblashlar amalga oshirildi. Ushbu nazariyalar bosqichi kuchsiz va o'rta energetik qiymatli nokovalent bog'lanishlar uchun samarali ekanligi tegishli manbalar [2-6] da o'z tasdig'ini topgan. Hisoblashlar Gaussian 16 [7] dasturi yordamida amalga oshirildi. Dimerning o'zaro ta'sir energiyasini hisoblashda bazislar to'plami xatoligini (BSSE) e'tiborga olindi. Kompleksning o'zaro ta'sir energiyasi 12.12 kkal/mol ga teng va bunda Bazislar to'plami xatoligi hisobga olingan. Dipol momenti 5.6 D va birinchi spektral momenti (M_1) 3511 cm⁻¹ ga teng.

$(\text{CH}_3)_2\text{CO}\cdots\text{HF}$ dimerning optimal geometriyasida muhim bo'lgan parametrlardan $r(\text{HF})=0.938 \text{ \AA}$, $r(\text{C}=\text{O})=1.227 \text{ \AA}$, $R(\text{F}-\text{O})=2.657 \text{ \AA}$ ga teng bo'lib monomerlarning massalari markazidagi masofalar $R_{\text{C-m}}=3.431 \text{ \AA}$ ga teng. Ushbu $r(\text{HF})$ va $r(\text{C}=\text{O})$ masofalar mos ravishda $0.918 \text{ \AA}$ va $1.221 \text{ \AA}$ teng.



2-rasm. $(\text{CH}_3)_2\text{CO}\cdots\text{HF}$ dimerning optimal geometriyasi. Atomlararo masofalar ($\text{\AA}$), burchaklar ($^\circ$).

$(\text{CH}_3)_2\text{CO}\cdots\text{HF}$ kompleksdagi $\nu(\text{C}=\text{O})$ polosaning og'irlik markazi $M_1 = 1725 \text{ cm}^{-1}$ ga teng va bu polosa tajribada kompleks hosil bo'lishi natijasida $\nu(\text{C}=\text{O})$ polosa 20 cm^{-1} ga quyi energetik tomon siljigan.

Olingan ilmiy natijalar HF molekulasini ishtirok etgan $\text{B}\cdots\text{HF}$ medel sistemalarning yutilish spektrlarini tahlili, nazariy va spektroskopik tadqiqotlarni integratsiya qilish hamda $\nu(\text{HF})$ valent tebranish polosasining shakllanishiga sabab bo'luvchi omillarni ilmiy asosda tushinish imkoniyatini beradi. Asosiysi, model sistemalarning izolyatsilaylangan gaz fazasida Fur'e IQ yutilsih spekrlari va zamonaviy nazariy modellashtirish natijalaridan foydalanilgan holda murakkab molekulyar komplekslarning ichki dinamik harakatlari va ularning spektroskopik namoyon bo'lishi o'rtasidagi munosabatlarni oydinlashtirishda foydalanish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Y. Zhao and D. G. Truhlar, *Theor. Chem. Acc.*, 2008, 120, 215-241.
2. K. Kříž and J. Řezáč, *Phys. Chem. Chem. Phys.*, 2022, 24, 14794-14804.
3. A. D. Boese, *ChemPhysChem.*, 2015, 16, 978-985.
4. S. Kozuch and J. M. L. Martin, *J. Chem. Theory Comput.*, 2013, 9, 1918-1931.
5. M. Walker, A. J. A. Harvey, A. Sen and C. E. H. Dessent, *J. Phys. Chem. A*, 2013, 117, 12590-12600.
6. K. S. Thanthiriwatte, E. G. Hohenstein, L. A. Burns and C. D. Sherrill, *J. Chem. Theory Comput.*, 2011, 7, 88-96.
7. M. J. Frisch, G. W. Trucks, H. B. Schlegel, G. E. Scuseria, M. A. Robb, J. R. Cheeseman, G. Scalmani, V. Barone, G. A. Petersson, H. Nakatsuji, X. Li, M. Caricato, A. V. Marenich, J. Bloino, B. G. Janesko, R. Gomperts, B. Mennucci, H. P. Hratchian, J. V. Ortiz, A. F. Izmaylov, J. L. Sonnenberg, D. Williams-Young, F. Ding, F. Lipparini, F. Egidi, J. Goings, B. Peng, A. Petrone, T. Henderson, D. Ranasinghe, V. G. Zakrzewski, J. Gao, N. Rega, G. Zheng, W. Liang, M. Hada, M. Ehara, K. Toyota, R. Fukuda, J. Hasegawa, M. Ishida, T. Nakajima, Y. Honda, O. Kitao, H. Nakai, T. Vreven, K. Throssell, J. A. Montgomery Jr., J. E. Peralta, F.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15055898>

QON GURUHLARI ERITROTSITLARINING OSMOTIK VA KOLOID-OSMOTIK STRESSGA CHIDAMLILIGI

**Azizova Noila Mirali qizi,
Ashurova Marjona Yog‘mir qizi**
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti
azizovanoila@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur ishning maqsadi Inson turli qon guruhlari eritrotsitlarining osmotik va koloid-osmotik stressga chidamliligi baholashdan iboratdir. Biokimyoviy ko‘rsatkichlar Humastar100 (Germaniya) biokimyoviy analizatorida aniqlandi. Olingan natijalar turli qon guruhlari qon plazmalarida albumin, glyukoza, xolesterin, triglitserid va mochevina kabi biokimyoviy ko‘rsatkichlar miqdorlari orasida statistik jihatdan ishonchli bo‘lgan ma‘lum farqlar mavjudligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: AB0 tizim, qon plazmasi, umumiy oqsil, albumin, glyukoza, triglitserid, xolesterin, mochevina, kreatinin.


Mavzuning dolzarbligi. Tarixan qonni asosan 4 guruhga ajratishgan, ammo bugungi kunga kelib, eritrotsitlar membranasida 36 tizimga birlashtirilgan 300 dan ortiq antigen determinantalari aniqlangan [3]. Shunga qaramay AB0 hamda rezus (Rh) tizimlari amaliy tibbiyotda hali ham eng asosiy tizimlar sifatida qaraladi [2].

Adabiyot ma‘lumotlariga ko‘ra, qon guruhi va ayrim kasalliklarni rivojlanish havfi orasida o‘zaro bog‘liqlik mavjuddir [1,4]. Yaqinda COVID-19 ning og‘ir kechishi bilan AB0 qon tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida ma‘lumot paydo bo‘ldi: COVID-19 ning og‘ir kechishi ko‘proq A (II) qon guruhi bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi [5]. Ammo bu bog‘liqlarning molekulyar sabablari noma‘lumligicha qolmoqda. Qon hujayralari antigenlari strukturasining turlichaligi bu bog‘liqliklarni eritrotsitlar xolati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, deb faraz qilish imkonini beradi. Biokimyoviy va biofizik tadqiqotlar eritrotsit membranasida porali struktura ekanligi hamda unda deyarli 2000 ga yaqin suv molekulalarini o‘tkazish imkoniga ega poralar (teshiklar) mavjud ekanligini ko‘rsatdi. Agar eritrotsit membranasida oqsillar, lipoproteinlar, glikoproteinlar hamda sof lipidlardan tashkil topgan mozaik strukturaligini hamda undagi molekulalar doimiy lateral diffuziya holatida xarakatlanib turishini hisobga olsak, turli qon

guruhlariga oid eritrotsitlarning osmotik rezistentligi ularning antigen tarkibi turlichaligi tufayli oʻzaro farqlanishi mumkin. Ilmiy adabiyotda bu masala boʻyicha maʼlumotlar yoʻqligi tufayli biz turli qon guruhiga oid eritrotsitlarning osmotik rezistentligi hamda kolloid-osmotik stressga chidamliligini oʻrganishga qaror qildik.

Ushbu tadqiqotlarning birinchi bosqichida muhitning osmotik bosimining kamayishi bilan eritrotsitlarda lizis jarayonining ortishi kuzatildi. Eritmaning osmotik bosimi 40 mOsm/kg H₂O boʻlganida lizis jarayoni 0 (I) guruhda $94,74 \pm 0,63$ mOsm/kg H₂O, qolgan barcha guruhlarda 100 % ni tashkil etdi. Olingan natijalarda qizil qon hujayralarining 50 %li gemoliziga olib keluvchi samarador osmotik bosim (SB_{50%}) 0 (I), A (II), B (III) va AB (IV) qon guruhlari boʻyicha tegishlicha $96,3 \pm 6,71$ (n=6), $102,22 \pm 1,67$ (n=8), $105,51 \pm 0,31$ (n=7) va $102,7 \pm 0,86$ (n=8) mOsm/kg H₂O ni tashkil etdi (1-rasm).

0 (I) guruh eritrotsitlari bilan B (III) guruh eritrotsitlari orasidagi farq 9,6 % ni tashkil qilgani holda, bu farq statistik jihatdan ishonchli boʻlmadi.




1-rasm. Turli qon guruhlariga mansub eritrotsitlarining osmotik bosimi turlicha boʻlgan (290-40 mOsm/kg H₂O) eritmalardagi gemolizi

Chapda: gemoliz foizining muhit osmotik bosimiga bogʻliqligi.

Oʻngda: turli qon guruhlari eritrotsitlarining 50 % gemolizga olib keluvchi osmotik bosim qiymati (1-gr – 0 (I), 2-gr – A (II), 3-gr – B (III), 4-gr – AB (IV), n – tajribalar soni).

Tadqiqotlarning keyingi bosqichida 0 (I), A (II), B (III) va AB (IV) qon guruhlariga tegishli eritrotsitlarni nistatin yordamida chaqirilgan kolloid-osmotik lizisga chidamliligi o'rganildi. Polien antibiotik nistatin hujayra membranasidagi sterol strukturalarga, xususan xolesterin molekulalariga bog'lanishga imkon beruvchi ko'plab qo'shbog'lar saqlaydi (2-rasm).




2-rasm. Nistatinning struktur formulasi

Bu esa o'z navbatida nistatinni xolesterin molekulalariga bog'lanishiga olib kelib, hujayra membranalarda suv va ionlarni o'tkazadigan poralarni (teshiklar) hosil bo'lishiga olib keladi. Nistatin ta'sirida kolloid-osmotik lizisning yuzaga kelishi hujayra membranasining o'ziga hos xususiyatlari orqali asoslanishi tufayli, u hujayra membranalarning kolloid-osmotik lizisga chidamliligini o'rganish uchun qo'llaniladi.

Nistatin ta'sirida hujayra membranalarda suv va ionlarni o'tkazadigan poralarni hosil bo'lishi tizimni oddiy donnan tizimiga aylanishiga va bu, o'z navbatida, hujayraning bo'kishi va lizisiga olib keladi.

Natijalar qizil qon hujayralarining 50 %li gemoliziga olib keluvchi nistatinning samarador konsentratsiyasi (SK_{50%}) 0 (I), A (II), B (III) va AB (IV) qon guruhleri eritrotsitlari bo'yicha mos ravishda $71,68 \pm 3,13$ (n=8), $90,9 \pm 2,19$ (n=7), $74,48 \pm 2,02$ (n=8) va $91,67 \pm 9,03$ (n=8) mkMni tashkil etishini ko'rsatdi (3-rasm).



3-rasm. Turli qon guruhlari mansub eritrotsitlarining nistatinli muhitdagi gemolizi.

Izoh: A) turli qon guruhlari eritrotsitlari statsionar (37 °C, 60 min) gemolizining nistatin konsentratsiyasiga bog'liqligi;

B) turli qon guruhlari eritrotsitlarida 50 % gemolizga olib keluvchi nistatin konsentratsiyasi (ES_{50%});

Statistik ahamiyatli ($R < 0,05$) farq () belgisi bilan ko'rsatilgan.*

n - tajribalar soni.

Bunda A (II) va AB (IV) qon guruhlari eritrotsitlarining SK_{50%} ko'rsatkichi 0 (I) qon guruhi eritrotsitlarinikiga nisbatan statistik ishonchli mos ravishda 26,8 va 27,9 % ga yuqori bo'ldi. B (III) qon guruhi eritrotsitlarining SK_{50%} ko'rsatkichi 0 (I) qon guruhi eritrotsitlarinikidan deyarli farqlanmadi. Shunday qilib, natijalar A (II) va AB (IV) qon guruhlari eritrotsitlari nistatin tomonidan yuzaga keladigan kolloid-osmotik gemolizga ancha chidamliroq ekanligidan dalolat berdi.

Ma'lumki, A (II) qon guruhi eritrotsitlari membranalarida faqat A-gemagglyutinogeni, B (III) qon guruhi eritrotsitlari membranalarida esa faqat B-gemagglyutinogeni mavjud. AB (IV) qon guruhida esa ham A-, ham B-gemagglyutinogenlari mavjud. Bundan nistatin tomonidan yuzaga keladigan kolloid-osmotik gemolizga chidamlilik aynan A-gemagglyutinogeni tomonidan asoslanadi, degan hulosaga kelish mumkin. Ushbu holatni aniq molekulyar mexanizmlarini o'rganish ko'shimcha tadqiqotlar o'tkazishni taqozo etadi.

Xulosa

Turli qon guruhlari eritrositlari membranalarining funksional imkoniyatlari bir-biridan farqlanadi: II va IV guruh eritrositlari kolloid-osmotik gemolizga chidamliroq ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Daniels G., Reid M.E. Blood groups: the past 50 years. *Transfusion*. 2010; 50(2): 281-9. DOI:10.1111/j.1537-2995.2009.02456.x
2. . Xu X., Xu F., Ying Y., Hong X., Liu Y., Chen S., He J., Zhu F., Hu W. AB0 antigen levels on platelets of normal and variant AB0 blood group individuals. *Platelets*. 2018; (26): 1-7. DOI:10.1080/09537104.2018.1543863
3. Eastlund T. The histo-blood group AB0 system and tissue transplantation. *Transfusion*. 1998; (38): 975–88. DOI:10.1046/j.1537-2995.1998.381
4. Franchini M., Liumbruno G.M. AB0 blood group: old dogma, new perspectives. *Clinical Chemistry and Laboratory Medicine*. 2013; 51(8): 1545–53. DOI:10.1515/cclm-2013-0168
5. Franchini M., Bonfanti C. Evolutionary aspects of AB0 blood group in humans. *Clinica Chimica Acta*. 2015; (444): 66–71. DOI:10.1016/j.cca.2015.02.016

TABLE OF CONTENTS

Sr. No.	Paper/ Author
1	Asadullayeva, N. S. (2025). TALABALARNING STATISTIK TAHLIL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH UCHUN DASTURIY TA'MINOTNI TAKOMILLASHTIRISH. Educational research in universal sciences, 4(4), 4–8. https://doi.org/10.5281/zenodo.14946866
2	Toirova, S. S., Axmedova, X. E., & Xasanova, Z. S. (2025). THE MAIN PURPOSE AND EFFECTIVENESS OF TRAINING BASED ON THE PROJECT METHOD. Educational Research in Universal Sciences, 4(4), 9–13. https://doi.org/10.5281/zenodo.14946883
3	Ergashboyev, M. (2025). TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI: GRANTLAR, SUBSIDIYALAR VA INVESTITSİYALAR. Educational research in universal sciences, 4(4), 14–20. https://doi.org/10.5281/zenodo.14946922
4	Узаков, Ж. З. угли . (2025). ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ. Educational research in universal sciences, 4(4), 21–26. https://doi.org/10.5281/zenodo.14946940
5	Jumayev, A. H., & Yakubova, N. (2025). TISH PROTEZLARIGA MOSLASHISH OMILLARI VA ULARNING FARMAKOLOGIK TARTIBGA SOLINISH IMKONIYATLARI. Educational research in universal sciences, 4(4), 27–38. https://doi.org/10.5281/zenodo.14946955
6	Karimov, A. A., Ergasheva, D. I., & Ergashev, M. I. (2025). O'ZBEKISTONDA ERTICO LOYIHASI TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING ILMIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI. Educational research in universal sciences, 4(4), 39–43. https://doi.org/10.5281/zenodo.14946979

7

Saminova, P. M. qizi ., Yarmanov, S. X., & Qurbanbayeva, S. X. qizi . (2025). LOVIYA QOBIG'I ASOSIDA OLINGAN BIOMASSALARGA Cr3+ SORBSIYASI. Educational research in universal sciences, 4(4), 44–46. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14946999>

8

Alimjonov, I. (2025). TECHNICAL MALFUNCTIONS IN THE INTERNATIONAL SPACE STATION'S ENERGY SYSTEM AND THEIR SOLUTIONS. Educational Research in Universal Sciences, 4(4), 47–55. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14947013>

9

Sattorova, D. G., Nasirova, S. Z. qizi ., Kamolova, S. O. qizi ., Abdixonov, B. X. o'g'li ., & Mirodilova, Z. A. qizi . (2025). TIBBIYOTDA KORRUPSIYA: MUAMMO VA YECHIMLAR. Educational research in universal sciences, 4(4), 56–59. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14947026>

10

Умарова, Д. А., Мухамедов, Б. Б., Венцель, А. А., & Хан, А. А. (2025). СОЦИАЛЬНЫЕ СЕТИ КАК ВАЖНЕЙШИЕ ЗВЕНЬЯ СОВРЕМЕННОГО ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА. Educational research in universal sciences, 4(4), 60–62. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14947046>

11

Ernazarova, N. H. (2025). O'QUVCHILARNING MATEMATIK MODELLASHTIRISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH. Educational research in universal sciences, 4(4), 63–69. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14990217>

12

Arslonbekova, R. A., & Rashidov, S. A. (2025). RELATIVE ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF A MONOPOLISTIC MARKET STRUCTURE. Educational Research in Universal Sciences, 4(4), 70–76. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15007058>

13

Parmanova, N. A. (2025). HUMAN ORGANISM RESPONSE TO POLLUTED ATMOSPHERIC AIR. Educational Research in Universal Sciences, 4(4), 77–82. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15007113>

14

Турдиев, Т. У. уғли . (2025). БОТУЛИЗМ: ЭТИОЛОГИЯ, КЛИНИКА, ЛЕЧЕНИЕ И ПРОФИЛАКТИКА. Educational research in universal sciences, 4(4), 83–91. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15007261>

15

Rajabova, G., & Mamurova, Z. (2025). TA'SIRCHAN O'SIMLIKLAR, ULARNING DORIVOR XOSSALARI VA DORIVOR VOSITA SIFATIDA ISHLATILISHI (ODDIY BO'YIMODARON, BRYONIA ALBA VA DORIVOR JERUXA MISOLIDA). Educational research in universal sciences, 4(4), 92–97. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15007285>

16

Jamilov, B. B. o'g'li . (2025). O'ZBEKISTONDA YER OSTI SUV RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISHNING MEYORIY-HUQUQIY ASOSLARI. Educational research in universal sciences, 4(4), 98–106. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15007300>

17

Mustafoev, Z. M. ogli ., & Tirkashev, A. S. o'g'li . (2025). MIYA QONTOMIRLARINING MORFOLOGIK O'ZIGA XOSLIGI VA ULARNING YOSH BILAN BOG'LIQ O'ZGARISHLARI. Educational research in universal sciences, 4(4), 107–113. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15007312>

18

Хуррамов, А. Б. (2025). ЁШЛАРДА АТРОФ-МУХИТ МУХОФАЗАСИ ВА ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИ ШАКИЛЛАНТИРИШ. Educational research in universal sciences, 4(4), 114–119. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15007323>

19

Murodova, H. U., & Aslonova, M. Q. qizi . (2025). SAKSOVUL – EKOLOGIK MUVOZANAT KALITI. Educational research in universal sciences, 4(4), 120–125. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15007330>

20

Gulboyeva, D. R., & Rasulova, O. R. qizi . (2025). OG'IR METALLARNING ATROF MUHITGA VA INSON ORGANIZMIGA TA'SIRI. Educational research in universal sciences, 4(4), 126–131. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15007349>

21

Gulboyeva, D. R., Zogitova, Z. S. qizi ., & Shavkatova, D. S. qizi . (2025). QASHQADARYO VILOYATI SUV XAVZALARI SUVINING KIMYOVIY TAHLIL NATIJALARI HAMDA MIS IONLARI BILAN IFLOSLANISHINI MONITORINGI. Educational research in universal sciences, 4(4), 132–141. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15007362>

22

Халилов, О. Б. (2025). ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА УРОВЕНЬ ЗАРАБОТНОЙ ПЛАТЫ В ПРОИЗВОДСТВЕ. Educational research in universal sciences, 4(4), 142–145. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15015565>

23

Айтмуратов, Б. Ш., & Иземетов, С. Б. (2025). УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОНТРОЛЯ МИКРОКЛИМАТА В АГРАРНОЙ ОТРАСЛИ С ПОМОЩЬЮ АВТОМАТИЗИРОВАННЫХ СИСТЕМ НА БАЗЕ МИКРОКОНТРОЛЛЕРОВ. Educational research in universal sciences, 4(4), 146–148. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15015572>

24

Amonov, A., & Muxiddinova, M. (2025). (CH₃)₂CO···HF DIMERNING □(HF) VALENT TEBRANISH POLOSASI SHAKLLANISH MEXANIZMLARINI IQ SPEKTROSKOPIYA VA KVANTO-KIMYOVIY HISOBLASHLAR YORDAMIDA O'RGANISH. Educational research in universal sciences, 4(4), 149–153. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15052973>

25

Azizova, N. M. qizi ., & Ashurova, M. Y. qizi . (2025). QON GURUHLARI ERITROTSITLARINING OSMOTIK VA KOLOID-OSMOTIK STRESSGA CHIDAMLILIGI. Educational research in universal sciences, 4(4), 154–158. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15055898>